

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

1-МАХСУС СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ
СПЕЦИАЛЬНЫЙ НОМЕР-1

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
SPECIAL ISSUE-1



ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
№SI-1 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2025-SI-1>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:
Сеитов Азамат Пулатович
доктор социологических наук (DSc), профессор

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:
Сабирова Умида Фархадовна
доктор социологических наук (DSc)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD:

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Бекмурадов Мансур Бобомурадович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Каланов Комил Куллахматович
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)
Убайдуллаева Раиса Турсуновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Негматова Шахзода Шухратовна
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Шайылдаева Асель Кокоевна
кандидат социологических наук (Кыргызстан)

Исмаилов Алишер Агзамович
доктор экономических наук, (Узбекистан)
Щепилова Галина Германовна
доктор философских наук, профессор (Россия)
Рожанский Михаил Яковлевич
кандидат философских наук (Россия)
Маматов Нормурат
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Бурнашев Рустам Ренатович
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Умаров Абсалом Адилевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Холбеков Абдугани Жуманазарович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Акулич Мария Михайловна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

Антонио Алонсо Марсос
доктор политических наук, профессор (Испания)
Фадеева Любовь Александровна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Виктор Агаджаньян
доктор философии по социологическим наукам,
профессор (США)
Абдулазизов Абдулвохид Хабибуллоевич
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Аликариев Нуритдин Сапаркариевич
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)
Матибаев Тасполат Балтабаевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Николов Стефан
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)

Мирзахмедов Абдирашид Мамасидикович
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Ли Ци
доктор исторических наук, профессор (Китай)
Сухомлинова Марина Валерьяновна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

www.tadqiqot.uz решают задачи, предусмотренные Стратегией Узбекистана 2030, направленные на развитие науки за счет внедрения достижений научных исследований ученых и служащих их признанию в международном научном сообществе. Так, каждой статье, опубликованной в журнале, присваивается номер DOI (Crossref). Журналы включены в международные индексные базы данных. Входит в список журналов ВАК Узбекистана.

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Пармонов Фарход Ярашевич
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Жусубалиев Абдикайым Рысбаевич
кандидат социологических наук, доцент (Кыргызстан)
Алимухамедова Нодира Ядгаровна
доктор философии по философским наукам (Узбекистан)

Камалова Хатира Сабыровна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Тагиева Гулсум Гафуровна
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Ахмедова Феруза Медетовна
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Аликариева Аълохон Нуриддиновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Зайтов Элёр Холмаматович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Уразалиева Гулшода Бекпұлатовна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

Мирзахмедов Хуршид Абдирашидович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Қаюмов Қахрамон Нозимжонович
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Сеитова Зухраhon Пиржановна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Махкамов Қодиржон Одилжонович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Доспанова Дилара Уракбаевна
кандидат филологических наук, доцент (Узбекистан)

Каримов Бобир Шаропович
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Якубов Ильдар Харрасович
кандидат политических наук, доцент (Узбекистан)
Абдухалилов Абдулло Абдухамитович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

Кириш сўзи	6
1. Xolbekov Abdug‘ani KOLONIALIZMNING IJTIMOIIY QIYOFASI (TURKIY XALQLARNING ISTILO QILINISHI MISOLIDA).....	9
2. Убайдуллаева Раиса ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ КАПИТАЛ: СТРУКТУРА, СОДЕРЖАНИЕ И ПРАКТИКА ПРИМЕНЕНИЯ.....	17
3. Сеитова Зухрагон ОТРАЖЕНИЕ ЖЕНСКОЙ КРАСОТЫ В ПОЭЗИИ ПОЭТОВ-СУФИСТОВ.....	24
4. Alikariyeva A‘loxon TA‘LIM SHFATI BOSHQARUVI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHDA TURLI YONDASHUVLAR TAHLILI.....	34
5. Mo‘minov Zokirjon TASHQI MIGRATSIYA: DAVLATLARNING INTEGRATSIYA SIYOSATI (BUYUK BRITANIYA MISOLIDA).....	40
6. Ходжаев Собир ИНДЕКС АКТИВНОГО СТАРЕНИЯ И ЗАНЯТОСТЬ ПОЖИЛЫХ ЛЮДЕЙ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	46
7. Абдувалиева Мумтозхон СОЦИАЛЬНО-ДЕМОГРАФИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ И БАРЬЕРЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКИ ОРИЕНТИРОВАННОГО ПОВЕДЕНИЯ.....	55
8. Burxanov Xusniddin MILLIY SAYTLAR MODERNIZATSIYALASHUVINING O‘ZIGA XOS JIHATLARI.....	66
9. To‘raxo‘jaeva Ra‘no AHOLI ORASIDAGI NOROZILIK KAYFIYATINI YUZAGA KELISHIDA AXBOROT TECHNOLOGIYALARINING O‘RNI.....	73
10. Nematova Dilfuza KAMBAG‘ALLIKNI O‘RGANISHDAGI ILMIY NAZARIY YONDOSHUVLAR.....	78
11. Eshmanova Iroda TRENDS IN CHANGES IN THE NATIONAL MENTAL CHARACTERISTICS OF UZBEK YOUTH IN MIGRATION CONDITIONS.....	87
12. Teshayev Doniyor OILAVIY NIZOLARNI HAL ETISH BO‘YICHA MEDIATORLAR TAYYORLASH YO‘NALISHLARI.....	94
13. Pxxomov Umrbek O‘ZBEKISTON MAHALLALARIDA YOSHLARNING IJTIMOIIYLASHUV JARAYONLARINING XUSUSIYATLARI.....	100
14. Nurqulov Bunyod YOSHLAR SIYOSIIY IJTIMOIIYLASHUVINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI VA UNING JAMIYATDAGI O‘RNI.....	106
15. Qobilov Uchqun DAVLAT XIZMATCHILARINING KASBIY KOMPETENTLIGI VA MILLIY O‘ZLIKNI ANGLASH UYG‘UNLIGI.....	114

16. Izzatulloeva Kamilla IMPROVING THE EFFECTIVENESS OF ANTI-CORRUPTION EFFORTS IN THE SOCIAL SPHERE OF UZBEKISTAN.....	120
17. Burxanov Xusniddin AXBOROT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA MILLIY SAYTLARNI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI.....	128
18. Imomova Nozimaxon O'ZBEKISTONDA MEHNAT MIGRATSIYASI SUBYEKTLARI SA'I-HARAKATLARINING MOTIVATSION TAVSIFI.....	135


ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Nurqulov Bunyod,

О‘zbekiston Milliy Universiteti
Sotsiologiya kafedrasi o‘qituvchisi
e-mail: nurkulov_b@nuu.uz

YOSHLAR SIYOSIY IJTIMOIYLASHUVINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI VA UNING JAMIYATDAGI O‘RNI

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.16423489>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada yoshlarning siyosiy ijtimoiylashuvining rivojlanish bosqichlari va jamiyatdagi o‘rni tahlil qilinadi. Maqolada yoshlarning siyosiy va ijtimoiy tizimlarga qanday moslashishini va jamiyatda qanday faol fuqarolarga aylanishini o‘rganadi. Siyosiy ijtimoiylashuv jarayoni bolalikdan boshlab, o‘rta maktab va oliy ta‘lim bosqichlarida davom etadi va nihoyat, yoshlarning jamiyatdagi siyosiy faolligiga olib keladi. Yoshlarning siyosiy ongini rivojlantirishda oila, maktab, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarning o‘rni haqida yoritib berilgan. Maqolada shuningdek, yoshlarning siyosiy faoliyatda ishtirok etishi jamiyatda demokratik jarayonlarning rivojlanishi, ijtimoiy innovatsiyalar va barqaror tizimning shakllanishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatishini ta‘kidlaydi.

Kalit so‘zlar: yoshlar, siyosiy ijtimoiylashuv, rivojlanish bosqichlari, fuqarolik mas‘uliyati, siyosiy ong, jamiyat, demokratik jarayonlar, ijtimoiy innovatsiyalar, siyosiy faollik, o‘rta maktab, oliy ta‘lim, siyosiy tizim, ijtimoiy tarmoqlar, ommaviy axborot vositalari.

Нуркулов Бунед,

Национальный Университет Узбекистана
Преподаватель кафедры социологии
e-mail: nurkulov_b@nuu.uz

ЭТАПЫ РАЗВИТИЯ ПОЛИТИЧЕСКОЙ СОЦИАЛИЗАЦИИ МОЛОДЕЖИ И ЕЕ МЕСТО В ОБЩЕСТВЕ

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируются этапы развития и роль политической социализации молодежи в обществе. В статье исследуется, как молодые люди приспособляются к политическим и социальным системам и становятся активными гражданами в обществе. Процесс политической социализации начинается с детства, продолжается на этапах средней школы и высшего образования и, наконец, приводит к политической активности молодежи в обществе. Освещается роль семьи, школы, средств массовой информации и социальных сетей в развитии политического сознания молодежи. В статье также подчеркивается, что участие молодежи в политической деятельности положительно влияет на развитие демократических процессов в обществе, социальные инновации и формирование устойчивой системы.

Ключевые слова: молодежь, политическая социализация, этапы развития, гражданская ответственность, политическое сознание, общество, демократические процессы, социальные инновации, политическая активность, средняя школа, высшее образование, политическая система, социальные сети, СМИ.

Nurkulov Bunyod,
National University of Uzbekistan
Lecturer of the Department of Sociology
e-mail: nurkulov_b@nuu.uz

STAGES OF DEVELOPMENT OF POLITICAL SOCIALIZATION OF YOUTH AND ITS PLACE IN SOCIETY

ABSTRACT

This article analyzes the stages of development and the role of political socialization of youth in society. The article explores how young people adapt to political and social systems and become active citizens in society. The process of political socialization begins in childhood, continues at the stages of secondary school and higher education, and finally leads to the political activity of young people in society. The role of the family, schools, mass media and social networks in the development of political consciousness of young people is highlighted. The article also emphasizes that youth participation in political activities has a positive impact on the development of democratic processes in society, social innovation and the formation of a sustainable system.

Keywords: youth, political socialization, stages of development, civic responsibility, political consciousness, society, democratic processes, social innovation, political activism, secondary school, higher education, political system, social networks, mass media.

KIRISH

Siyosiy ijtimoiylashuv konsepsiyasi XX asrning 50-yillar oxirida AQSHda shakllangan. Bu konsepsiyani paydo bo'lishi G'arb jamiyati siyosiy tizimi an'anaviy institutlarining inqirozi bilan bog'liq bo'ldi. Mazkur an'anaviy institutlar yangi demokratik tamoyillarni yangi shakllangan avlodga ixtiyoriy ravishda singdirishga ojizlik qila boshlagan. Bu inqiroz hokimiyatning hukmronlik doirasini o'sib borishini shaxs va omma tomonidan anglanmaganligi, shuningdek, paydo bo'lgan yangi jamiyatda shakllangan yangi ijtimoiy guruhlarning yangicha talablarini qondira olmay qolishi sababli kelib chiqdi. XX asr 90-yillarining boshlarida siyosiy ijtimoiylashuv jarayoniga hokimiyat organlariga ishonchini kuchayishi yoki ishonchning kamayishi, ularning davlat siyosatini amalga oshirishda ishtirok etish darajasiga qarab jamiyat vakillarining davlat siyosatini qo'llab-quvvatlashi yoki unda qatnashishini istamaslik kabi ijtimoiy holatni keltirib chiqaradi. Bu keyinchalik shaxsning siyosiy tizimga qarshiligi, hokimiyat institutlariga ishonchsizlik, siyosiy munosabatlarda ishtirok qilmay qo'yishlik, va nihoyat, rasmiy hokimiyatga qarshi ommaviy chiqishlar natijasida inqiroz yanada kuchaydi [1].

METODOLOGIYA

Yoshlarning siyosiy ijtimoiylashuvini o'rganishda turli ilmiy maktablar va olimlar tomonidan turlicha yondashuvlar ishlab chiqilgan. Ushbu metodologik yondashuvlar asosan psixologik, ijtimoiy, siyosiy va madaniy omillarga asoslanadi. D.Iston (D.Easton) va J.Dennis siyosiy ijtimoiylashuvni "siyosiy tizimlar barqarorligini saqlab qoluvchi jarayon" deb talqin qiladi. Ularning fikricha, siyosiy ijtimoiylashuv orqali yosh avlod mavjud siyosiy tizimga moslashadi, tizim esa o'zini avloddan-avlodga saqlab qoladi [2]. S.Lipset esa yoshlar siyosiy ijtimoiylashuvini jamiyatdagi siyosiy madaniyatni barqarorlashtiruvchi omil sifatida ko'radi. U siyosiy ijtimoiylashuvning asosiy mezonlari sifatida siyosiy ishonch, ishtirok va identifikatsiyani belgilaydi [3]. P.Berger va T.Lukman ijtimoiylashtirishni insonning ijtimoiy haqiqatni qabul qilish va undan o'rin egallash jarayoni deb tushuntiradi. Ularning nazariyasiga ko'ra, siyosiy ijtimoiylashuv – bu jamiyatdagi siyosiy "haqiqat"ning yosh ongida shakllanishidir [4] degan fikrlarni ilgari so'rgan.

O‘zbekistonlik olimlardan M.Karimov quydagicha fikr bildiradi. Siyosiy ijtimoiylashuv – bu shaxsning siyosiy tafakkuri, qadriyatlari va me‘yorlari jamiyat siyosiy institutlari orqali shakllanadigan murakkab ijtimoiy jarayondir. M.Karimov bu jarayonni bosqichli va tizimli deb baholaydi, ya‘ni bola avval oila, so‘ng ta‘lim, OAV, siyosiy institutlar orqali ijtimoiylashadi. U shuningdek, yoshlarning siyosiy ijtimoiylashuviga ijtimoiy muhit, siyosiy madaniyat va ta‘lim tizimi kuchli ta‘sir ko‘rsatishini ta‘kidlaydi [5]. Sh.Toshpo‘latov siyosiy ijtimoiylashuvni “yoshlar ongida fuqarolik mas‘uliyati, siyosiy ishonch va ijtimoiy faollik shakllanishi” deb ta‘riflaydi. U bu jarayonni O‘zbekiston sharoitida milliy qadriyatlar asosida yo‘naltirilgan siyosiy tarbiya tizimi deb qaraydi. Sh.Toshpo‘latov yoshlarning siyosiy faolligi ularning siyosiy ong darajasiga bevosita bog‘liq, deb hisoblaydi. N.Nuriddinovaning tadqiqotlarida yoshlarning siyosiy ijtimoiylashuvi avvalo siyosiy motivatsiya va ishtirok ehtiyoji bilan bog‘liq ekani ko‘rsatiladi. U yoshlar o‘zlarini jamiyat hayotida muhim deb his qilganida, siyosiy faol bo‘lishga intilishini qayd etadi. U, shuningdek, interaktiv ta‘lim metodlari va yoshlar tashkilotlari faoliyati orqali siyosiy ijtimoiylashuv samarali kechishini asoslab bergan.

Sharq olimlari qarashlari yoshlar siyosiy ijtimoiylashuvi masalasiga ko‘proq axloqiy-ma‘naviy qadriyatlar, jamiyatdagi ijtimoiy adolat, davlatga sadoqat va fuqarolik burchi nuqtayi nazaridan yondashadi. Abu Nasr Forobiy (873-950) siyosiy-falsafiy qarashlarida “fazilatli jamiyat” tushunchasini ilgari suradi. Uning fikricha, jamiyatning taraqqiyoti fuqarolarning ongli, ma‘rifatli va axloqiy yetuk bo‘lishiga bog‘liq. Siyosiy ijtimoiylashuv bu yerda axloqiy tarbiya va aqlga asoslangan siyosiy ong shakllanishi sifatida namoyon bo‘ladi. “Aqlli va donishmand kishilar boshqaradigan jamiyatda siyosiy tartiblar odamlarning kamolotga erishishiga xizmat qiladi” degan fikrni ilgari so‘rgan. Demak, Forobiy uchun siyosiy ijtimoiylashuvning asosi – ilm, axloq va adolat hisoblanadi.

ASOSIY QISM

Biz yoshlarning siyosiy ijtimoiylashuviga ta‘rif beradigan bo‘lsak quydagicha ta‘rif berishimiz mumkin. Yoshlarning siyosiy ijtimoiylashuvi – bu yoshlarning siyosiy tizimga, ijtimoiy tuzilmalarga va madaniyatga moslashish jarayonini ifodalaydi. Ushbu jarayon yoshlarning siyosiy ongini, fuqarolik mas‘uliyatini va ijtimoiy me‘yorlarga bo‘lgan munosabatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Siyosiy ijtimoiylashuvning bu bosqichi jamiyatning siyosiy tizimiga integratsiya qilishda va yoshlarni ijtimoiy faoliyatga jalb etishda muhim ahamiyatga ega. Yoshlarning siyosiy ijtimoiylashuvi, umuman olganda, jamiyatdagi siyosiy va ijtimoiy jarayonlar bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, ularning faol fuqarolarga aylanishini ta‘minlashga xizmat qiladi. Bu jarayon yoshlarning mustaqil fikrlashini, siyosiy qarashlarini va qadriyatlarini shakllantirishda asosiy omil hisoblanadi [6]. Yoshlarning siyosiy ijtimoiylashuvi bir qancha bosqichlarga bo‘linadi, ular o‘zaro bir-birini to‘ldirgan holda davom etadi. Har bir bosqichda yoshlar siyosiy tizimga o‘z munosabatlarini aniqlab, fuqarolik mas‘uliyatini o‘zlashtiradi.

Yoshlarning siyosiy ijtimoiylashuvining quydagi bir qancha bosqichlarni ko‘rib chiqamiz:

1. Erta bolalik davri (5-10 yosh):
2. O‘rta maktab davri (11-16 yosh):
3. Oliy ta‘lim va yoshlar davri (17-24 yosh):
4. Yoshlik va faol fuqarolik davri (25 va undan yuqori yosh):

1. Erta bolalik davri (5-10 yosh):

Erta bolalik davri – yoshlarning siyosiy ijtimoiylashuvi jarayonining boshlang‘ich bosqichi bo‘lib, bu davrda bolalar jamiyatga integratsiyalanishni boshlaydilar. Ushbu davrda bolaning ijtimoiy, emotsional va kognitiv rivojlanishi kuchli ta‘sir ko‘rsatadi, shuningdek, siyosiy ijtimoiylashuvning asosiy qadriyatlari va me‘yorlari shakllana boshlaydi. Bolalar o‘z oilalari, do‘stlari, o‘qituvchilari va jamoat bilan aloqalari orqali siyosiy va ijtimoiy muhitga dastlabki kirish qilishadi. Erta bolalik davri siyosiy ijtimoiylashuvning boshlang‘ich bosqichi bo‘lib, bu yerda siyosiy tushunchalar to‘g‘risidagi bilimlar hali sodda va bir tekis bo‘lmasa ham, bolalar birinchi navbatda ijtimoiy muhitdan o‘rgangan o‘rganishlarni amalga oshiradilar. Bu bosqichda ularning siyosiy anglashlari darhol shakllanmasligi mumkin, lekin ular jamiyatning asosiy qadriyatlari va me‘yorlarini to‘g‘ri o‘zlashtirishga tayyor bo‘lishadi. Erta bolalikda bolalar oilaning siyosiy va ijtimoiy qadriyatlarini o‘rganadilar. Oila bu davrda bola uchun asosiy ijtimoiylashtiruvchi omil bo‘lib xizmat qiladi. Ota-onalar yoki boshqa qarindoshlar bolalar uchun birinchi siyosiy modelni taqdim etadilar,

ular o'zlarining siyosiy va ijtimoiy qarashlari orqali bolaga hayotdagi to'g'ri va noto'g'ri, adolat va adolatsizlik, inson huquqlari va boshqalar kabi asosiy tushunchalarni tushuntiradilar. Shuningdek, bu davrda bolalar o'z atrofidagi ijtimoiy va siyosiy muhitni bevosita o'rganadilar. Masalan, ular qonunlar va ijtimoiy me'yorlarning zarurligini, o'z huquqlari va majburiyatlarini anglay boshlaydilar. Oiladagi siyosiy muhit bolalarning umumiy ijtimoiylashuv jarayoniga ta'sir ko'rsatishi mumkin, chunki bolalar ota-onalarining siyosiy qarashlarini va jamiyatga bo'lgan munosabatlarini qabul qilishadi [7].

Maktab va o'qituvchilarning roli: Maktabda o'qituvchilar bolalarga jamiyatning asosiy normativ me'yorlarini va ijtimoiy mas'uliyatlarini o'rgatadilar. Maktabda bu davrda bolalar ijtimoiy me'yorlar va jamiyatdagi roli haqida boshlang'ich tushunchalarni olishadi. Bu yerda ularning to'g'ri va noto'g'ri, adolat va tenglik, hurmat va o'zaro munosabatlar kabi tushunchalarni o'rganishlari muhimdir. Shu bilan birga, maktabda bolalar o'z huquqlarini va mas'uliyatlarini anglashadi, bu esa siyosiy ongni rivojlantirishning boshlanishi hisoblanadi. Erta bolalikda bolalar jamoaviy faoliyatlarda ishtirok etishni o'rganadilar: o'yinlar, guruh ishlarida, sinfda va maktabda jamiyatda o'z o'rnini topish uchun bir-biri bilan aloqalar o'rnatadilar. Bu ijtimoiy faollik bolalarning siyosiy ongini shakllantirishga ta'sir qiladi, chunki ular o'zlarini guruhning bir qismi sifatida his qilishni boshlaydilar. Ommaviy axborot vositalarining ta'siri: Erta bolalik davrida ommaviy axborot vositalari orqali tashqi dunyo bilan tanishadilar. Televidenie, radio, internet va boshqa axborot manbalari orqali ular jamiyatdagi asosiy voqealar va siyosiy hodisalar haqida dastlabki tushunchalarni olishadi. Bu jarayon bolalar uchun muhim, chunki ular ommaviy axborot vositalari orqali adolat, tenglik, huquqlar va jamiyatdagi boshqaruv haqida ilm olishadi. Shuningdek, ommaviy axborot vositalarining ta'siri bilan bolalar jamiyatdagi o'zgarishlarga nisbatan yangi g'oyalarni o'rganadilar. Bu omillar bolalarning siyosiy ijtimoiylashuvining boshlang'ich bosqichini shakllantiradi, chunki ular siyosiy va ijtimoiy voqealarni kuzatib borib, o'zlarining dunyoqarashlarini rivojlantiradilar.

Ijtimoiy o'yinlar va rollar: Ijtimoiy o'yinlar va rollar orqali ham bolalar jamiyatda siyosiy ijtimoiylashib borishadi, masalan bolalar o'yinlar orqali ham siyosiy va ijtimoiy tushunchalarni o'rganadilar. O'yinlar ko'pincha muayyan ijtimoiy rollarni bajarishga, o'zaro munosabatlarni shakllantirishga va jamiyatdagi to'g'ri va noto'g'ri, adolat va adolatsizlik haqida tasavvurlarni yaratishga yordam beradi. Masalan, bolalar o'zlari o'ynagan rollar orqali fuqarolik mas'uliyatini, boshqaruvni va jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni tushunishni o'rganadilar. Bu o'yinlar ularga jamiyatda o'z o'rnini va ahamiyatini anglashda yordam beradi [8].

2. O'rta maktab davri (11-16 yosh):

O'rta maktab davri – yoshlarning siyosiy ijtimoiylashuvi jarayonida muhim bosqich bo'lib, bu davrda o'quvchilarning siyosiy ong va fuqarolik mas'uliyati aniq shakllanadi. Ushbu davrda yoshlar ko'pincha o'z shaxsiy fikr va qarashlarini rivojlantirib, siyosiy jarayonlarga faolroq qiziqishni boshlaydilar. O'rta maktab yoshlarining siyosiy ijtimoiylashuv jarayonidagi roli kuchayadi, chunki bu davrda bolalar o'zlarini jamiyatning faol fuqarolari sifatida his qilishni boshlaydilar. Bu bosqichda yoshlarga jamiyatdagi ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy tizimlar haqida ko'proq ma'lumot beriladi. Ularning siyosiy ongini shakllantirishda maktab, o'qituvchilar, do'stlar va ommaviy axborot vositalari (OAV) muhim rol o'ynaydi. Bu davrda yoshlar turli siyosiy fikrlarni o'rganish, ular bilan tanishish va ularni o'z hayotlariga tatbiq qilish jarayonida qatnashadilar.

Siyosiy ongning shakllanishi: O'rta maktab yoshlarida siyosiy ongning shakllanishi kuchayadi. Bu davrda o'quvchilar, birinchidan, jamiyatdagi asosiy siyosiy tizimlar va ularning faoliyatini tushunishga harakat qiladilar. Ular hukumat tizimi, qonunlar, fuqarolik huquqlari, demokratik jarayonlar kabi tushunchalarni yaxshiroq anglay boshlaydilar. Maktabdagi tarix, fuqarolik ta'limi, adabiyot va jamiyatshunoslik fanlari bolalarga siyosiy voqealarni, jamiyatdagi muammolarni va siyosiy faoliyatni tushunishda yordam beradi. Ikkinchidan, yoshlar siyosiy tashkilotlar, partiyalar va jamoat harakatlari bilan tanishadilar. Ularning siyosiy qarashlari bu davrda shakllana boshlaydi. Yoshlar ko'pincha o'zlarining siyosiy qarashlarini oila a'zolaridan, do'stlaridan, o'qituvchilardan yoki ommaviy axborot vositalaridan olingan g'oyalar asosida quradilar. Bu bosqichda siyosiy partiyalar yoki boshqa siyosiy tashkilotlarga qiziqish va ularga qo'shilish istagi

kuchayishi mumkin [9]. O'rta maktab davri yoshlarining siyosiy ijtimoiylashuv jarayonida eng muhim o'zgarishlardan biri ijtimoiy faollikning boshlanishidir. Ushbu davrda yoshlar o'z huquqlari va mas'uliyatlarini yanada aniqroq tushunadilar va jamiyatdagi turli muammolarni hal qilishda faol ishtirok etish istagi uyg'onadi. Ular protestlar, ijtimoiy harakatlar va jamoat ishlarida ishtirok etish orqali o'z fikrlarini bildirishni boshlaydilar. Bu davrda yoshlar, shuningdek, fuqarolik mas'uliyatini ham o'z zimmasiga olishadi. O'rta maktab yoshlarida demokratik jarayonlar, ovoz berish huquqi, saylovlar, teng huquqlilik va boshqalar kabi masalalarga qiziqish ortadi. Yoshlar siyosiy tizimning faol ishtirokchilari sifatida o'zlarining ijtimoiy va siyosiy qarashlarini bildirishda to'g'ri yo'nalishni topadilar. Shuni ta'kidlab o'tish joizki, o'rta maktabda siyosiy savodxonlikni rivojlantirish jarayoni juda muhim hisoblanadi. Chunki o'quvchilar ijtimoiy va siyosiy masalalar bo'yicha bilimlarini kengaytiradilar. Siyosiy savodxonlik, o'z navbatida, ularning jamiyatdagi voqealarni tushunish, tahlil qilish va o'z qarashlarini bildirishda muvaffaqiyatli bo'lishlariga yordam beradi. Siyosiy savodxonlik o'quvchilarga nafaqat jamiyatni, balki o'zlarini ham yangilangan siyosiy va ijtimoiy muhitda ko'rish imkonini beradi [10].

Yoshlarning siyosiy savodxonligi o'quv jarayonida ko'plab o'qituvchilar va o'quv dasturlari tomonidan ta'minlanadi. Bu jarayonda o'quvchilar siyosiy tizim, siyosiy partiyalar, ijtimoiy masalalar va ijtimoiy o'zgarishlar haqida ma'lumot olishadi. O'quvchilar siyosiy savodxonlikni rivojlantirish orqali jamiyatdagi voqealarni chuqurroq tahlil qilishga, o'z fikrlarini yaratishga va ijtimoiy muammolarga yechim topishga o'rganadilar.

Ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar: O'rta maktab yoshlarining siyosiy ijtimoiylashuvida ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarning ta'siri juda katta. Bu davrda yoshlar internet, televidenie, radio, gazeta va ijtimoiy tarmoqlar orqali siyosiy ma'lumotlarga qiziqishni boshlaydilar. Yoshlar uchun ijtimoiy tarmoqlar siyosiy fikrlar almashish, yangi g'oyalarni kashf qilish va siyosiy voqealarni kuzatish uchun qulay platforma hisoblanadi. Ijtimoiy tarmoqlar orqali yoshlar o'z fikrlarini boshqalar bilan baham ko'rish, siyosiy harakatlarga qo'shilish yoki jamoatchilik fikriga ta'sir o'tkazish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Shu bilan birga, ijtimoiy tarmoqlar siyosiy fikrlarni shakllantirishda va yoshlar o'rtasida siyosiy faollikni oshirishda muhim omilga aylanishi mumkin [11].

3. Oliy ta'lim va yoshlar davri (17-24 yosh):

Oliy ta'lim va yoshlar davri – yoshlarning siyosiy ijtimoiylashuvi jarayonining eng muhim bosqichlaridan biri hisoblanadi. Ushbu davrda yoshlar shaxsiy, ijtimoiy va siyosiy hayotda mustahkamroq o'rin egallay boshlaydilar, o'zlarining siyosiy qarashlari va fuqarolik mas'uliyatlarini aniqroq shakllantiradilar. Bu davrda yoshlar, o'z hayotlarida ko'plab muhim qarorlar qabul qilishga kirishadilar, shu jumladan, siyosiy faollikda ishtirok etish, fuqarolik mas'uliyatini o'z zimmasiga olish, va jamiyatdagi o'zgarishlar jarayonlarida faol ishtirok etish. Oliy maktab davri yoshlarining siyosiy ijtimoiylashuvi nafaqat ta'lim tizimida, balki ijtimoiy muhitda, siyosiy harakatlarda va jamiyatdagi umumiy ijtimoiy jarayonlarda qatnashishda rivojlanadi. Bu davrda yoshlar o'z siyosiy va ijtimoiy qarashlarini shakllantiradilar, jamiyatda o'z o'rinlarini topadilar va fuqarolik faolligi orqali ijtimoiy jarayonlarga ta'sir ko'rsatishga harakat qiladilar.

Oliy ta'lim yoshlarida siyosiy ong va anglash darajasi keskin rivojlanadi. Bu davrda yoshlar jamiyatdagi ijtimoiy va siyosiy tizimlarni yanada chuqurroq o'rganadilar, siyosiy va ijtimoiy hayotga oid murakkab tushunchalarni qabul qiladilar. Maktabda o'qish davomida yoshlar siyosiy tizimlar, huquqlar, erkinliklar, davlatning funksiyalari va demokratik jarayonlar to'g'risida aniqroq tasavvurlarga ega bo'ladilar [20]. Bu davrda yoshlar ko'proq siyosiy tizim va demokratik jarayonlarga qiziqishni boshlaydilar, chunki ular davlat va jamiyatdagi siyosiy o'zgarishlarga ta'sir qilish istagini uyg'otadigan o'quv va ijtimoiy tajribalarga ega bo'ladilar. Maktabda olingan bilimlar, siyosiy ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar orqali yoshlar siyosiy anglashini yanada rivojlantiradilar [12].

Siyosiy va ijtimoiy faollik: Oliy ta'lim va yoshlar davrida siyosiy faollikning kuchayishi ayniqsa e'tiborga molik. Ushbu davrda yoshlar siyosiy jarayonlarga faol ishtirok etishni boshlaydilar, o'zlarining siyosiy qarashlarini ifodalashda mustaqil bo'ladilar va fuqarolik mas'uliyatini o'z zimmasiga olishni boshlaydilar. Yoshlar turli siyosiy va ijtimoiy harakatlarga qo'shilish, fuqarolik

aksiyalarida ishtirok etish, partiyalarga a'zo bo'lish yoki ijtimoiy faoliyatda ishtirok etish orqali jamiyatdagi o'zgarishlarga ta'sir o'tkazishga harakat qiladilar. Bu davrda yoshlar ko'pincha siyosiy yoki ijtimoiy harakatlarda qatnashishni, ijtimoiy masalalarga qiziqishni boshlaydilar. Masalan, yoshlar ekologik, ijtimoiy tenglik, inson huquqlari, ta'lim va ish bilan ta'minlash masalalari kabi jamoat muammolarida faol qatnashishadi. Oliy ta'lim yoshlarining siyosiy faolligi ular uchun nafaqat siyosiy ongni shakllantirish, balki jamiyatdagi o'z o'rinlarini aniqlashda ham muhimdir.

Oliy ta'lim yoshlarida fuqarolik mas'uliyatining shakllanishi, avvalambor, o'z huquqlarini anglash va ulardan foydalana olish bilan bog'liqdir. Bu yoshdagi insonlar o'zlarini jamiyatda faol fuqarolar sifatida his qilishni boshlaydilar, shuningdek, o'z fuqarolik majburiyatlarini ham angelaydilar. Yoshlar saylovda ishtirok etish, fuqarolik aksiyalarida qatnashish, ijtimoiy harakatlarga qo'shilish kabi faoliyatlar orqali fuqarolik mas'uliyatini his qilishadi. Bundan tashqari, bu davrda yoshlar o'zlarining ijtimoiy va siyosiy pozitsiyalarini shakllantirishda o'zlarini ko'proq erkin va mustaqil his qilishadi. Ko'plab yoshlar ijtimoiy tarmoqlar orqali o'z fikrlarini bildirishadi, siyosiy jarayonlarda ishtirok etishadi, va jamiyatda o'zgarishlarni yaratish uchun o'z hissalarini qo'shishga intilishadi.

Yoshlarning siyosiy va fuqarolik faolligi jamiyatning barqarorligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar: Oliy ta'lim yoshlarining siyosiy ijtimoiylashuv jarayonida ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarning ta'siri nihoyatda kuchli hisoblanadi. Bu davrda yoshlar siyosiy va ijtimoiy masalalar bo'yicha turli manbalarni kuzatib boradilar, siyosiy qarashlarini o'rganadilar va o'z fikrlarini bildirishadi. Ommaviy axborot vositalari (OAV) va ijtimoiy tarmoqlar yoshlar uchun o'z siyosiy pozitsiyalarini yaratish, o'zaro fikr almashish va siyosiy voqealarga ta'sir ko'rsatish imkoniyatini taqdim etadi. Shuningdek, yoshlar siyosiy ma'lumotlarni internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali osonlik bilan olishadi. Bu, o'z navbatida, yoshlarning siyosiy bilimlarini kengaytiradi va siyosiy qarashlarini shakllantirishda katta ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiy tarmoqlarda yoshlar siyosiy masalalar va jamiyatdagi o'zgarishlar haqida fikrlarini erkin bildiradilar, bu esa siyosiy faollikning kuchayishiga olib keladi [13].

4. Yoshlik va faol fuqarolik davri (25 va undan yuqori yosh):

Yoshlik va faol fuqarolik davri – yoshlarning siyosiy ijtimoiylashuvi jarayonida eng muhim bosqichlardan biridir. Ushbu davrda yoshlar nafaqat shaxsiy hayotlarida, balki jamiyatda ham faol ishtirok etadilar. Yoshlikdagi siyosiy va ijtimoiy faollik yoshlarning shaxsiy rivojlanishi, jamiyatdagi o'zgarishlarga ta'sir o'tkazish va fuqarolik mas'uliyatini o'z zimmasiga olishdagi qarorlarida muhim o'rin tutadi. 25 yoshdan oshgan yoshlar, ko'pincha o'z siyosiy qarashlarini mustahkamlaydilar va ularni hayotga tatbiq etishda faol bo'ladilar. Ular jamiyatning turli ijtimoiy va siyosiy jarayonlarida ishtirok etadilar, o'zlarining huquq va mas'uliyatlarini anglab, o'zgarishlarga ta'sir qilishga harakat qiladilar. 25 yoshdan oshgan yoshlarning siyosiy ong va ijtimoiy anglash darajasi ancha rivojlanadi. Ular jamiyatdagi siyosiy tizimlar va ijtimoiy strukturalarni yanada chuqurroq tushunishga, o'zlarining siyosiy pozitsiyalarini aniqlashga va faol fuqarolar sifatida jamiyatga ta'sir o'tkazishga tayyor bo'ladilar. Bu davrda yoshlar o'z siyosiy qarashlarini yanada mustahkamlashadi, siyosiy partiyalar, ijtimoiy harakatlar va fuqarolik jamiyatining funksiyalariga bo'lgan munosabatlari yanada aniqroq shakllanadi [14].

Yoshlarning siyosiy ongining rivojlanishiga, ularning ta'lim darajasi, kasbiy faoliyatidagi muvaffaqiyatlar, shuningdek, jamiyatdagi o'zgarishlarga bo'lgan munosabati ta'sir qiladi. Maktabda va oliy ta'limda olingan bilimlar, shuningdek, turli siyosiy va ijtimoiy jarayonlarga aloqador tajribalar yoshlarni jamiyatdagi asosiy siyosiy va ijtimoiy tizimlarni tushunishga yordam beradi. Shu bilan birga, yoshlar o'z fikrlarini, qarashlarini va siyosiy pozitsiyalarini boshqalar bilan bo'lishish, o'zgarishlarni yaratish uchun mustaqil qarorlar qabul qilishga kirishadilar. Yoshlik va faol fuqarolik davrida yoshlar siyosiy va fuqarolik faollikda yangi bosqichga o'tadilar. Ular ko'proq mustaqil siyosiy qarorlar qabul qilishni boshlaydilar, turli siyosiy harakatlar va jamoat tashkilotlarida ishtirok etadilar. Bu davrda yoshlar nafaqat jamiyatdagi mavjud siyosiy tizimlar va muammolarni tushunishga harakat qiladilar, balki ular o'z fikrlarini ifodalashda va o'zgarishlarni yaratishda faol qatnashadilar [15]. Bu bosqichda yoshlar ijtimoiy harakatlar va siyosiy targ'ibotda qatnashib, o'zlari uchun muhim bo'lgan masalalarni ilgari suradilar. Masalan, inson huquqlari, ekologik xavfsizlik, gender tengligi,

iqtisodiy tenglik va boshqalar kabi ijtimoiy muammolarni hal qilishda yoshlar o'z fikrlarini bildirishda faol bo'ladilar.

Yoshlikda fuqarolik faolligi ularning jamiyatdagi o'z o'rinlarini aniqlashda va kelajakdagi siyosiy faollikda muhim omil bo'ladi. Yoshlarning siyosiy ijtimoiylashuvi jamiyatdagi o'zgarishlarga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Yoshlikda, ayniqsa 25 yoshdan oshgan davrda, yoshlar o'z shaxsiy mas'uliyatini yanada chuqurroq anglab, jamiyatda ijtimoiy adolat, tenglik va huquqiy erkinlikka qaratilgan o'zgarishlarni amalga oshirishga intilishadi. Yoshlarning siyosiy faolligi jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, demokratik tizimning mustahkamlanishi va siyosiy jarayonlarda ishtirok etish orqali o'zgarishlarga olib keladi. Bu davrda yoshlar o'zgarishlarni yaratishda o'z mas'uliyatlarini his qilishadi. Ular ijtimoiy tizimning faol ishtirokchilari sifatida jamiyatdagi muammolarga qarshi kurashishadi, yangi siyosiy va iqtisodiy usullarni ilgari surishadi. Yoshlarning siyosiy faolligi nafaqat ularning o'z hayotini, balki butun jamiyatni rivojlantirishga qaratilgan ijtimoiy harakatlar bilan bog'lanadi [16].

Siyosiy tizimga ta'sir o'tkazish: Yoshlik davrida yoshlar siyosiy tizimga ta'sir o'tkazish orqali jamiyatda o'zgarishlarga olib keladilar. Ular o'zlari uchun muhim siyosiy va ijtimoiy masalalar bo'yicha ovozlarini chiqarishadi. Bu davrda yoshlar nafaqat siyosiy targ'ibot va kampaniyalarda ishtirok etishadi, balki o'zlarining siyosiy g'oyalarini joriy etish, yangi siyosiy yechimlar va ijtimoiy tizimlarni taklif qilishda ham faol ishtirok etishadi. Siyosiy partiyalar va ijtimoiy tashkilotlar yoshlarni o'z saflariga jalb qilishni davom ettiradilar, chunki ular yangi fikrlar, g'oyalar va kelajakdagi siyosiy yutuqlarni olib kelishlari mumkin [17].

Yoshlikda yoshlar ijtimoiy tarmoqlarda o'zlarini ifodalash va siyosiy fikrlarni rivojlantirishda yanada faol bo'ladilar. Internet va ijtimoiy tarmoqlar yoshlarning siyosiy ongini shakllantirishda, yangi g'oyalar bilan tanishtirishda, turli siyosiy muammolarga e'tibor qaratishda katta rol o'ynaydi. Yoshlik davrida ijtimoiy tarmoqlarda faol bo'lgan yoshlar jamiyatdagi siyosiy va ijtimoiy jarayonlarga ta'sir qilishda yangi imkoniyatlarga ega bo'ladilar. O'zlarining siyosiy pozitsiyalarini bildirish, muammolarga javob berish va ijtimoiy tarmoqlarda jamoat fikrini shakllantirish orqali ular jamiyatdagi o'zgarishlarga ta'sir ko'rsatishga harakat qiladilar [18].

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish joizki, erta bolalik davri (5-10 yosh) siyosiy ijtimoiylashuvning boshlang'ich bosqichi sifatida yoshlarning jamiyatga integratsiyalanishida muhim o'rin tutadi. Bu davrda bolalar oiladan, maktabdan, ommaviy axborot vositalaridan va o'yinlardan siyosiy va ijtimoiy qadriyatlarni o'rganadilar. Siyosiy tushunchalar to'g'risidagi bilimlar va siyosiy faoliyatda ishtirok etishga qiziqish bu davrda shakllanadi.

Erta bolalikda bolalar o'zlarini jamiyatning bir qismi sifatida his qilishni boshlaydilar, bu esa ularning siyosiy ongining rivojlanishining asosiy bosqichidir. O'rta maktab davri yoshlarining siyosiy ijtimoiylashuv jarayoni jamiyatdagi siyosiy va ijtimoiy tizimlarni chuqurroq tushunish, o'z fikr va qarashlarini shakllantirish va fuqarolik mas'uliyatini o'z zimmasiga olish bilan bog'liq bo'ladi. Bu davrda o'quvchilar siyosiy ongni rivojlantirib, siyosiy tizim va jamiyatdagi o'z o'rinlarini aniqlashga harakat qiladilar.

O'rta maktab yoshlarining siyosiy faolligi va siyosiy savodxonligi jamiyatning kelajakdagi faol fuqarolarini tarbiyalashda muhim omil bo'ladi. Oliy ta'lim va yoshlar davri siyosiy ijtimoiylashuvning yakuniy bosqichi sifatida yoshlarning jamiyatdagi roli va faoliyatini aniqlaydi. Bu davrda yoshlar siyosiy va ijtimoiy qarashlarini shakllantiradilar, fuqarolik mas'uliyatini o'z zimmasiga olishadi va siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etadilar. Oliy ta'lim yoshlarining siyosiy faolligi jamiyatdagi demokratik jarayonlarni mustahkamlash, siyosiy barqarorlikni ta'minlash va ijtimoiy o'zgarishlarga ijobiy ta'sir ko'rsatishda muhim rol o'ynaydi.

Yoshlik va faol fuqarolik davri (25 va undan yuqori yosh) yoshlarning siyosiy ijtimoiylashuvi jarayonida yuqori darajaga ko'tariladi. Ushbu davrda yoshlar o'z siyosiy va ijtimoiy ongini shakllantirib, jamiyatda ijtimoiy adolat, tenglik, huquqiy erkinlikni amalga oshirishga intilishadi. Ular siyosiy tizimlarda faol ishtirok etib, jamiyatdagi o'zgarishlarga ta'sir ko'rsatishadi. Yoshlikdagi siyosiy faollik jamiyatning demokratik rivojlanishini ta'minlashda, fuqarolik mas'uliyatini oshirishda va ijtimoiy tizimning yaxshilanishida muhim rol o'ynaydi.

Adabiyotlar/ Литература/ References:

1. Основы политической науки. Часть 2. – М.: МГУ.
2. Easton D., Dennis J. Children in the Political System. – New York: McGraw-Hill, 1969.
3. Lipset S.M. Political Man: The Social Bases of Politics. – Garden City, NY: Doubleday, 1960.
4. Berger P., Luckmann T. The Social Construction of Reality. – New York: Anchor Books, 1966.
5. Karimov M. Siyosiy ijtimoiylashuv nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021. – 200 b.
6. Toshpo'latov Sh. Yoshlarning siyosiy madaniyatini shakllantirishda fuqarolik jamiyati institutlarining roli. – Toshkent: Ijtimoiy fikr, 2020.
7. Nuriddinova N. Yoshlarning siyosiy faolligini oshirishda zamonaviy metodlar. – "Ijtimoiy fanlar" jurnali, 2022, №3. – B. 25-31.
8. Forobiy A.N. Fozil shahar ahlining qarashlari. – Toshkent: Ma'naviyat, 2006.
9. Almond, G. A., & Verba, S. (1963). The Civic Culture: Political Attitudes and Democracy in Five Nations. Princeton University Press.
10. Castells, M. (2009). Communication Power. Oxford University Press.
11. Coleman, J. S. (1990). Foundations of Social Theory. Harvard University Press.
12. Cottle, S. (2008). Journalism and Politics: An Overview. Sage Publications.
13. Delli Carpini, M. X., Cook, F. L., & Jacobs, L. R. (2004). "Public Engagement with Political Life." The American Political Science Review.
14. Giddens, A. (2006). Sociology (5th ed.). Polity Press.
15. Inglehart, R. (1990). Cultural Shift in Advanced Industrial Society. Princeton University Press.
16. Inglehart, R. (1990). Cultural Shift in Advanced Industrial Society. Princeton University Press.
17. Putnam, R. D. (2000). Bowling Alone: The Collapse and Revival of American Community. Simon & Schuster.
18. Tarrow, S. (1998). Power in Movement: Social Movements and Contentious Politics. Cambridge University Press.

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

1-МАХСУС СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ
СПЕЦИАЛЬНЫЙ НОМЕР-1

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
SPECIAL ISSUE-1

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000